“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=393

2026-yil
10-son
oktabr
ISSN 3093-8546



Yuridik shaxs nomidan yoki manfaatida xizmatchini pora evaziga ogʻdirib olganlik uchun ma'muriy javobgarlik: xorijiy tajriba va milliy qonunchilik istiqbollari

Ismoil Abduxoshimov,
Oʻzbekiston Respublikasi IIV akademiyasi
mustaqil izlanuvchisi
e-mail: abduxoshimov1988@gmail.com

Аннотация. Maqolada yuridik shaxs nomidan yoki manfaatida davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organi xizmatchisini pora evaziga ogʻdirib olganlik uchun javobgarlik masalasi tahlil qilingan. Amaldagi qonunchilikda faqat jismoniy shaxs javobgarlik subyekti boʻlgani sababli korporativ korrupsiyadan manfaat koʻrgan tashkilot ta'sir doirasidan chetda qolayotgani asoslanadi. BMT konvensiyasi talablari hamda Rossiya, Germaniya, Italiya, Buyuk Britaniya va Braziliya modellari qiyosiy oʻrganilib, Ma'muriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksga yuridik shaxslar javobgarligini belgilovchi alohida modda kiritish, komplayens tizimini jazoni yengillashtiruvchi omil sifatida tan olish va ish qoʻzgʻatish vakolatini prokurorga berish taklif etiladi.

Калит сўзлар. yuridik shaxs, korporativ korrupsiya, pora evaziga ogʻdirib olish, ma'muriy javobgarlik, komplayens, karrali jarima, davlat xaridlari, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi

Аннотация. В статье анализируется проблема ответственности за подкуп служащего государственного органа, организации с государственным участием или органа самоуправления граждан от имени или в интересах юридического лица. Обосновывается, что поскольку субъектом ответственности по действующему законодательству является только физическое лицо, организация, извлекающая выгоду из корпоративной коррупции, остаётся вне сферы воздействия. На основе сравнительного анализа требований Конвенции ООН против коррупции, а также моделей России, Германии, Италии, Великобритании и Бразилии предлагается включить в Кодекс об административной ответственности самостоятельную статью об ответственности юридических лиц, признать систему комплаенса смягчающим обстоятельством и закрепить полномочие возбуждения дел за прокурором.

Ключевые слова. юридическое лицо, корпоративная коррупция, подкуп служащего, административная ответственность, комплаенс, кратный штраф, государственные закупки, Конвенция ООН против

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

коррупции

Annotation. The article examines liability for bribing an employee of a state body, a state-owned organization or a citizens' self-government body on behalf of or in the interests of a legal entity. It argues that since current legislation recognizes only natural persons as subjects of liability, the organization that benefits from corporate corruption remains beyond the reach of sanctions. Based on a comparative analysis of the UN Convention against Corruption and the models of Russia, Germany, Italy, the United Kingdom and Brazil, the article proposes a separate article on corporate liability in the Code of Administrative Liability, recognition of compliance programmes as a mitigating factor, and vesting the power to initiate proceedings in the prosecutor.

Keywords. legal entity, corporate corruption, bribery of an employee, administrative liability, compliance, multiple fine, public procurement, UN Convention against Corruption

Kirish. Korrupsiyaviy munosabatda pora beruvchi har doim ham oʻz shaxsiy manfaatini koʻzlamaydi. Davlat xaridlari, ruxsatnoma va litsenziya berish, bojxona va soliq tartib-taomillari kabi sohalarda xizmatchiga qimmatlik koʻpincha korxona rahbari, menejeri yoki vakili tomonidan, lekin tashkilot nomidan va uning hisobidan beriladi. Bunday holatda noqonuniy foydaning asosiy egasi jismoniy shaxs emas, balki shartnomani yutgan, ruxsatnomani olgan yoki tekshiruvdan qutulgan yuridik shaxs hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksining 193-1-moddasi davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organi xizmatchisini pora evaziga ogʻdirib olganlik uchun javobgarlikni belgilaydi, biroq uning subyekti faqat jismoniy shaxsdir [1]. Jinoyat kodeksi ham jinoyat subyekti sifatida faqat jismoniy shaxsni tan oladi [2]. Natijada korporativ manfaatni koʻzlab berilgan pora uchun xodim jarima toʻlaydi, tashkilot esa olingan shartnoma yoki imtiyozni saqlab qoladi. Bu holat jazoning tiyib turuvchi ta'sirini keskin pasaytiradi: tashkilot uchun xodimga solingan jarima “biznes xarajati”ga aylanadi.

“Korrupsiyaga qarshi kurashish toʻgʻrisida”gi qonun korrupsiyaga qarshi kurashishning subyektlari va choralarini belgilab, tashkilotlarda ichki nazoratni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi [3]. Ammo ichki nazorat tizimini joriy etmagan yoki uni rasmiyatchilik bilan yuritgan tashkilot uchun hech qanday ma'muriy-huquqiy oqibat nazarda tutilmagan. Tadqiqot davomida amaliyotchi mutaxassislar oʻrtasida oʻtkazilgan soʻrovda respondentlarning 72 foizi MJtKga yuridik shaxslarning ma'muriy javobgarligi institutini joriy etishni yoqlagani ushbu boʻshliqni amaliyot ham sezayotganini koʻrsatadi.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi 26-moddasida ishtirokchi davlatlardan korrupsiyaviy jinoyatlarda ishtirok etgani uchun yuridik shaxslarning javobgarligini belgilashni talab qiladi [4]. Muhimi shundaki, Konvensiya javobgarlik turini qat'iy belgilamaydi: u davlatning huquqiy prinsiplariga qarab jinoiy, fuqarolik yoki ma'muriy bo‘lishi mumkin, biroq sanksiyalar samarali, mutanosib va tiyib turuvchi bo‘lishi shart. Bu qoida yuridik shaxsni jinoyat subyekti sifatida tan olmaydigan tizimlar uchun ma'muriy javobgarlik yo‘lini ochib beradi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining 2016-yilgi tahliliy hisobotida ham turli davlatlarda yuridik shaxslar javobgarligi turlicha shaklda – jinoiy, ma'muriy yoki aralash – joriy etilgani, hal qiluvchi omil esa shaklning emas, sanksiya va tartibning samaradorligi ekani qayd etilgan [10].

Xorijiy tajribani tahlil qilish natijasida bir necha yondashuvni ajratish mumkin. *Birinchi yondashuv* – ma'muriy-huquqiy model bo‘lib, u Rossiya Federatsiyasida yaqqol ko‘rinadi. Rossiya Ma'muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi kodeksining 19.28-moddasi yuridik shaxs nomidan yoki manfaatida mansabdor shaxsga noqonuniy mukofot berish, taklif qilish yoki va'da qilish uchun javobgarlikni belgilaydi [5]. Sanksiya berilgan mablag‘ning karrali miqdorida uch darajada belgilangan: oddiy holatda uch baravarigacha, yirik miqdorda o‘ttiz baravarigacha, o‘ta yirik miqdorda yuz baravarigacha, har bir darajada esa eng kam qat'iy summa ko‘rsatilgan. Moddaga berilgan eslatmaga ko‘ra, huquqbuzarlikni aniqlashga faol ko‘maklashgan yoki tovlamachilikka uchragan yuridik shaxs javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin, Kodeksning 28.4-moddasiga ko‘ra esa bunday ishlarni qo‘zg‘atish vakolati faqat prokurorga berilgan [5].

Ikkinchi yondashuv – kontinental Yevropaning aralash modeli. Germaniyada yuridik shaxs jinoyat subyekti hisoblanmaydi, biroq Ma'muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi qonunning 30-paragrafi rahbar shaxs tomonidan sodir etilgan jinoyat yoki huquqbuzarlik uchun tashkilotga jarima solish imkonini beradi, 130-paragrafi esa rahbarning nazorat majburiyatini buzganligi uchun javobgarlikni nazarda tutadi [6]. Italiyada 2001-yil 8-iyundagi 231-qonun chiqaruvchi dekret yuridik shaxslarning “ma'muriy” javobgarligini joriy etgan bo‘lib, tashkilot huquqbuzarlikning oldini olishga qaratilgan tashkiliy, boshqaruv va nazorat modelini oldindan joriy etgani va uning samarali ishlaganini isbotlasa, javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin [7]. Bu model javobgarlikni tashkilotning ichki boshqaruv sifatiga bog‘laydi.

Uchinchi yondashuv – profilaktik majburiyatga asoslangan model. Buyuk Britaniyaning 2010-yilgi Poraxo‘rlik to‘g‘risidagi qonuni 7-bo‘limida tijorat tashkilotining unga bog‘liq shaxs tomonidan sodir etilgan poraxo‘rlikning oldini ola olmaganligi uchun alohida tarkib belgilangan [8]. Tashkilot faqat poraxo‘rlikning oldini olishga qaratilgan adekvat tartib-qoidalarga ega ekanini isbotlash orqali javobgarlikdan qutula oladi. Braziliyaning 2013-yilgi 12.846-qonuni esa yuridik shaxsning obyektiv javobgarligini belgilab, jarimani

tashkilot yalpi daromadining 0,1 foizidan 20 foizigacha miqdorida hisoblaydi, komplayens dasturining mavjudligi va tergov bilan hamkorlik qilish esa jazoni yengillashtiradi [9].

Koʻrib chiqilgan modellarni umumlashtirish uchta umumiy qonuniyatni koʻrsatadi. Birinchidan, yuridik shaxs javobgarligi jismoniy shaxs javobgarligini istisno qilmaydi, balki unga parallel ravishda qoʻllanadi. Ikkinchidan, sanksiya noqonuniy foyda yoki tashkilot hajmiga bogʻlanadi, aks holda u yirik kompaniya uchun ahamiyatsiz boʻlib qoladi. Uchinchidan, deyarli barcha modellarda ichki nazorat tizimi jazoni individuallashtirish yoki javobgarlikdan ozod qilish mezoni sifatida tan olinadi. Aynan shu uchinchi belgi institutni faqat jazolovchi emas, balki profilaktik vositaga aylantiradi.

Milliy huquqiy tizim uchun ma'muriy-huquqiy yondashuv eng maqbul hisoblanadi. Yuridik shaxsning jinoiy javobgarligini joriy etish jinoyat huquqining aybli shaxsiy javobgarlik prinsipini qayta koʻrib chiqishni talab qiladi va qisqa muddatda amalga oshirilishi qiyin. Ma'muriy-huquqiy yoʻl esa aybli shaxsiy javobgarlik prinsipiga daxl qilmaydi, chunki tashkilotga nisbatan choralar uning nomidan harakat qilgan jismoniy shaxsning javobgarligidan alohida qoʻllanadi; milliy qonunchilikda soliq va bojxona sohalarida yuridik shaxslarga moliyaviy sanksiyalar qoʻllash tajribasi ham mavjud. Shu bois MJtKga 193[1]-moddadan keyin yuridik shaxs nomidan, manfaatini koʻzlab yoki uning roziligi bilan jismoniy shaxs tomonidan xizmatchiga moddiy qimmatlik berish, uni mulkiy yoki nomulkiy manfaatdor etish uchun tashkilotning oʻzini javobgarlikka tortuvchi alohida modda kiritish taklif etiladi.

Taklif etilayotgan moddaning sanksiyasi uch darajali boʻlishi lozim: oddiy holatda berilgan qimmatlikning besh baravaridan oʻn baravarigacha, lekin bazaviy hisoblash miqdorining (BHM) bir yuz baravaridan kam boʻlmagan; yirik miqdorda – oʻttiz baravarigacha, lekin BHMning besh yuz baravaridan kam boʻlmagan; oʻta yirik miqdorda – yuz baravarigacha, lekin BHMning bir ming baravaridan kam boʻlmagan miqdorda jarima. Jarima bilan birga qimmatlikni majburiy musodara qilish va bir yildan uch yilgacha davlat xaridlarida ishtirok etish huquqidan mahrum etish qoʻllanishi kerak. Moddaga beriladigan eslatmada tashkilotda samarali ichki nazorat (komplayens) tizimi mavjudligi hujjatlar bilan tasdiqlansa, jarima miqdori 30 foizdan 50 foizgacha kamaytirilishi, huquqbuzarlikni oʻz ixtiyori bilan ma'lum qilgan va tergovga faol koʻmaklashgan tashkilot esa javobgarlikdan ozod qilinishi mumkinligi koʻrsatilishi maqsadga muvofiq.

Institutning samaradorligi protsessual masalalarning hal etilishiga ham bogʻliq. Birinchidan, yuridik shaxsga nisbatan ish qoʻzgʻatish vakolati prokuratura organlariga berilishi lozim, chunki bunday ishlar korporativ hujjatlar, moliyaviy operatsiyalar va bir necha jismoniy shaxsning harakatlarini tahlil qilishni talab etadi. Ikkinchidan, korporativ korrupsiya odatda kech aniqlanishini hisobga olib, yuridik shaxslarga nisbatan javobgarlikka tortish

muddati umumiy muddatlardan sezilarli darajada uzaytirilishi kerak. Uchinchidan, javobgarlikka tortilgan tashkilotlar to‘g‘risidagi ma'lumotlar davlat xaridlari tizimida ochiq reyestrda aks ettirilishi buyurtmachilar uchun ishonchli axborot manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. O‘tkazilgan tahlil amaldagi qonunchilikda faqat jismoniy shaxsning javobgarlikka tortilishi korporativ manfaatni ko‘zlab sodir etiladigan korrupsiyaga qarshi kurashda tizimli bo‘shliq hosil qilayotganini ko‘rsatdi. BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi yuridik shaxslar javobgarligining shaklini davlat ixtiyoriga qoldirgani sababli, uni ma'muriy-huquqiy yo‘l bilan joriy etish milliy huquqiy tizim prinsiplariga zid kelmaydi va xalqaro majburiyatlarni bajarish imkonini beradi.

Shu asosda, *birinchidan*, MJtKni yuridik shaxs nomidan, manfaatini ko‘zlab yoki uning roziligi bilan xizmatchini pora evaziga og‘dirib olganlik uchun tashkilotning ma'muriy javobgarligini belgilovchi alohida modda bilan to‘ldirish, unda berilgan qimmatlik miqdoriga bog‘liq uch darajali karrali jarima, majburiy musodara va davlat xaridlarida ishtirok etish huquqidan mahrum etishni nazarda tutish taklif etiladi.

Ikkinchidan, tashkilotda samarali ichki nazorat tizimining mavjudligini jazoni yengillashtiruvchi holat, huquqbuzarlikni o‘z ixtiyori bilan ma'lum qilish va tergovga faol ko‘maklashishni esa javobgarlikdan ozod qilish asosi sifatida belgilash zarur.

Uchinchidan, yuridik shaxslarning korrupsiyaviy ma'muriy huquqbuzarliklari bo‘yicha ish qo‘zg‘atish vakolatini prokuratura organlariga berish, ular uchun javobgarlikka tortish muddatini uzaytirish hamda javobgarlikka tortilgan tashkilotlar to‘g‘risidagi ma'lumotlarni davlat xaridlari tizimida ochiq e'lon qilish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi (1994-yil 22-sentabr) // Elektron manba: lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // Elektron manba: lex.uz/acts/111453.

3. O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi O‘RQ-419-son “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni // Elektron manba: lex.uz/docs/3088008.

4. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi (Nyu-York, 2003-yil 31-oktabr). O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-iyuldagi O‘RQ-158-son Qonuni bilan ratifikatsiya qilingan.

5. Кодекс Российской Федерации об административных правонарушениях от 30.12.2001 № 195-ФЗ (ст. 19.28, 28.4) // Elektron manba: consultant.ru.

6. Gesetz über Ordnungswidrigkeiten (OWiG), §§ 30, 130 // Elektron manba: gesetze-im-internet.de/owig_1968.

7. Decreto Legislativo 8 giugno 2001, n. 231 (Repubblica Italiana) // Elektron manba: normattiva.it.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

8. Bribery Act 2010 (United Kingdom), section 7 // Elektron manba: legislation.gov.uk/ukpga/2010/23.

9. Lei n° 12.846, de 1° de agosto de 2013 (República Federativa do Brasil) // Elektron manba: planalto.gov.br.

10. OECD. The Liability of Legal Persons for Foreign Bribery: A Stocktaking Report. – Paris: OECD Publishing, 2016.